

KREDIT-MODUL SHAROITIDA TALABALAR TA'LIMINI INDIVIDUALLASHTIRISH MAZMUNI

S.F.Arzikulova – *tadqiqotchi*

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tayanch soʻzlar: ta'lim, individuallashtirish, kredit-modul, mustaqil ta'lim, ta'lim tamoyillari, shakl, metodlar.

Ключевые слова: образование, индивидуализация, кредитный модуль, самостоятельное обучение, принципы, форма, методы.

Key words: education, individualization, credit module, independent learning, principles, form, methods.

Kirish. Dunyoda bugungi kunda Bolonya deklaratsiyasiga a'zo mamlakatlar soni ortib bormoqda. Bolonya jarayoni – bu Yevropa mamlakatlari orasida oliy ta'limni uyg'unlashtirish jarayonidir. U tushunish oson bo'lgan va o'xshash oliy ta'lim darajalar tizimini yaratishni, ta'limda kredit-modul tizimiga o'tishni, ta'lim sifatini ta'minlashda erkin akademik harakatlanishni va Yevropadagi ta'lim hamkorligini o'z ichiga oladi. Bir soʻz bilan aytganda, bu Yevropa mamlakatlarining oliy ta'lim tizimlarini uyg'unlashtirish, har bir kishi uchun teng ravishda ta'limni ta'minlash, intellektual, madaniy, ijtimoiy, ilmiy va texnologik salohiyatni shakllantirish va mustahkamlash, ta'lim sifatini takomillashtirish jarayonidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni mamlakatimizning oliy ta'lim tizimida yangi davrning boshlanishiga va tizimga bir qator yangiliklarning kiritilishiga asos bo'ldi. Jumladan, mazkur farmonga muvofiq "oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish" belgilab qo'yilgan. O'zbekistonning Bolonya jarayoni ta'lim tizimiga qo'shilishi unga dunyoning ko'plab mamlakatlari bilan oliy ta'lim sohasidagi aloqalarni yanada kengaytirishni ta'minlaydi va mamlakat ta'lim tizimining xalqaro miqyosidagi reytingini oshishiga olib keladi.

Kredit-modul tizimi, bu – ta'limni tashkil etish [2] jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi:

-talabalarining mustaqil ishlashini ta'minlash;

-talabalar bilimni reyting asosida baholash. Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;

bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;

talabalar bilimni reyting ball asosida baholash;

talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;

ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;

ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi.

Yuqoridagilar dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovasion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan individual tarzda mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir. Binobarin, mazkur tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirilgan. Ta'lim oluvchining butun hayoti davomida bilim olishini ta'minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgandir.

Tadqiqot metodologiyasi. Kredit-modul sharoitida talabalar ta'limini individuallashtirish mazmuniga soʻz qaratadigan bo'lsak, kredit modul tizimi va uni amalga oshirish jarayonida talabalar faoliyatini individuallashtirish jarayonini tadqiq etishda bir qator olimlarimizni tadqiqotlarini o'rganib, ushbu muammo haqida aniqroq tasavvurga ega bo'lish, ushbu jarayon metodikasini ishlab chiqishda muhim hisoblanadi.

Oliy ta'lim jarayonini individuallashtirish muammosi ustida M.K.Qalandarova, maktabgacha ta'lim jarayonini individuallashtirish muammosini F.Raxmonova, chet tilini o'qitish jarayonini individuallashtirish muammosini S.Sattorova, S.Yusupova, N.R.Alimova kabi olimlar o'z izlanishlarida bayon etganlar. Talabalarining individual ta'lim trayektoriyasini ishlashga doir izlanishlarni A.Ibragimov, J.Xudoyberdiyeva tadqiqotlarida kuzatishimiz mumkin.

Ta'limni individuallashtirish maqsadida modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muammosi YE.M.Roslyakova, A.G.Biserova, K.X.Xasenova, L.M.Baybolatova, L.P.Goloshekina, V.S.Zbarovskiy tadqiqotlarida, kompetentli yondashuvdan foydalanish V.A.Bolotov tadqiqotida batafsil ochib berilgan. A.Furmanning fikricha, kredit-modulli tizim sharoitida mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga o'quv jarayonida uch turdagi muammoli-modulli ma'ruzalarni qo'llash yordam beradi: ilmiy-axborot, ilmiy-loyihaviy va dunyoqarash-refleksiv [3].

Darhaqiqat, muammoli modulli ma'ruzalar o'qituvchining tinglovchilar bilan uyushgan muloqoti sifatida, uning davomida ilmiy muammoga umumiy yechim topiladi, talabalar va o'qituvchi o'rtasida bilim, ko'nikma va qadriyatlarining biznes, axborot va

psixologik almashinuvini amalga oshiradi. Bularning barchasi, olimning fikriga ko'ra, o'quv faoliyati uchun turtki turi, o'zaro munosabatlarni rivojlantirish asosidir.

Talabalar pedagogik ta'limini individuallashtirish jarayonini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olingan:

Talabalarning qiziqishlari, imkoniyatlari va bilim o'zlashtirish darajalariga ko'ra differensiallashtirish;

O'quv topshiriqlarini tabaqalashtirib ishlab chiqish;

o'zlashtirishdagi turli darajalarni inobatga olgan holda ta'lim metodlari va topshiriqlarini muvofiqlashtirish;

talabalarining individual ta'lim trayektoriyalarini ishlab chiqish;

o'quv-biluv jarayoniga doir motivatsiyasini rivojlantirish;

mustaqil ta'lim topshiriqlarini ma'ruza va amaliy mashg'ulot mazmuni bilan integratsiyalash;

Masalan, Bolalarning ijtimoiy moslashuvi fanidan mustaqil ta'lim mavzularini qo'yidagi jadval asosida talabalarga taqdim etish mumkin. Talabalar ma'ruza, amaliy, seminar darslarida o'rganganlaridan tashqari mustaqil ishlashlari uchun xuddi shunday tartibda tushuntiriladi. Har 5 ta o'tilgan ma'ruzadan keyin talabadan individual tarzda mustaqil ta'lim mavzulari qabul qilinadi.

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Shakli	Soati
MT1	Oilaning ijtimoiy maqomi.	Mustaqil o'zlashtirish, taqdimot tayyorlash	4
MT2	Ijtimoiy pedagogik faoliyat turlari.		4
MT4	Bolalarda deviant xulqning namoyon bo'lish shakllari.	Mustaqil o'zlashtirib, test tuzish.	4
MT5	Emperik va nazariy bilishni qiyoslang.		4
MT6	Ijtimoiy pedagogik faoliyatning asosiy yo'nalishlari nimadan iborat?	Mustaqil o'zlashtirish, esse yozish	4
MT7	Ijtimoiy pedagogikada ishonitirish metodi.		4

Tahlil va natijalar. Ta'lim tamoyillari. Ta'lim qonuniyatlaridan uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan muhim talablar kelib chiqadi. Ta'lim tamoyillari o'quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkiliy shakl va metodlarini belgilab beruvchi boshlang'ich qoidalardir. Ta'lim tamoyillarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Ta'limning mazmunga aloqadorligi
2. Tashkiliy-metodik.

Ta'lim materiallarini individuallashtirishda ijobiy natijalarga erishish uchun quyidagi tamoyillarga amal qilish talab etiladi:

Ta'limning mahsuldorligi tamoyili;

Ta'limni individuallashtirish tamoyili;

Axborotlarning globalligi tamoyili;

Faoliyatli yondashuvning ustuvorligi tamoyili.

Ta'limning mahsuldorligi tamoyili - bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish, o'quv motivlari, o'quv-tarbiyaviy jarayonning samarali tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan qo'llanuvchi ta'lim metodlari va vositalarining samaradorligi va boshqalar.

Ta'limni individuallashtirish tamoyili [4:3-4] - mazkur tamoyil talabalarining tashabbuskorliklari, talabalarining faollik darajasi, mustaqil va individual faoliyatlarini nazarda tutadi. Talabalarining faolliklari reproduktiv va ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin.

Talabaning o'quv materialidagi qonuniyatlarni aks ettirishi, tushunishi va o'zlashtirishi uchun to'g'ri shart-sharoit yaratish maqsadi uchun zarur ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyil ta'lim jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi. Ta'lim jarayonida tarbiyalashning samarali kechishi shaxsning intellektual rivojlanishi, birinchi navbatda, o'quvchilarning qiziqishlari, idrok etish hamda individual qobiliyatlarining hisobga olinishi bilan bog'liq.

Axborotlarning globalligi tamoyili – bu tamoyil ta'lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi, jahon sivilizatsiyasi to'plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi. Bu tamoyil ta'lim vaqtida va o'qishdan tashqari vaqtda amalga oshiriladigan ta'lim mazmuni talabalarni obyektiv ilmiy dalillar, hodisalar, qonunlar, zamonaviy yutuqlar va rivojlanish istiqbollarini ochib berishga yaqinlashtirib, u yoki bu sohaning asosiy nazariya yoki konsepsiyalari bilan tanishtirishga yo'naltirilgan bo'lishini talab etadi.

Xulosa va takliflar. Kredit-modul tizimining joriy etilishi o'qituvchi va talabaning hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanadi. Modulli ta'limda pedagog tinglovchining o'zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi. Talaba esa yo'naltirilgan obyekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng katta urg'u ham talabalarining mustaqil ta'lim olishiga qaratiladi. Ta'limni individuallashtirishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, differensial yondashuv va individual yondashuvga doir metodlar ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kredit-modul sharoitida ta'limni individuallashtirish jarayonining samarali kechishi ushbu jarayonning metodik ta'minotini takomillashtirish bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan talabalar ta'limini individuallashtirish maqsadida auditoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'limni samarali tashkil etishga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqish lozim bo'ladi.

Adabivotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2021-yil 10-iyundagi 359-son Qarori <https://lex.uz/docs/-5450923>

3. Топольский В.О. Проблемы организации самостоятельной работы студентов университета в процессе кредитно-модульной системы обучения. Текст: непосредственный // «Молодой ученый» 2014. № 3 (62). -С. 1039-1043. URL: <https://moluch.ru/archive/62/9549/> (дата обращения: 06.11.2023).

4. Aleks Muur. Ta'lim berish va ta'lim olish: pedagogika, ta'lim dasturi va tarbiya. Rutledj. Ikkinchi nashr. 2012. 3-4-b.

5. Arzikulova S.F. Kredit modul tizimi sharoitida ta'limni individuallashtirish metodikasini takomillashtirish. diss.avtoreferati. Qarshi. 2024.

REZYUME. Ushbu maqolada kredit modul tizimida talabalarning individual ta'limni individuallashtirish mazmuni haqida ma'lumot berilgan bo'lib, kredit modul tizimi, ushbu tizimda talabalar shaxsini individual yo'nalganligini oshirish, ta'limni talaba shaxsi o'zlashtirish qobiliyatiga moslashtirib tashkil etish, ta'limni individuallashtirish bosqichlari haqida so'z boradi. Ushbu maqoladan tegishli soha vakillari nazariy ma'lumot sifatida foydalanishlari mumkin.

РЕЗЮМЕ. В статье представлена информация о содержании индивидуализации индивидуального обучения студентов в кредитно-модульной системе. Кредитно-модульная система - это система, которая направлена на повышение индивидуальной направленности студентов в этой системе, организацию обучения в соответствии с индивидуальными учебными возможностями студента, а также обсуждаются этапы индивидуализации лимба. Данная статья может быть использована в качестве теоретической информации представителями соответствующей области.

SUMMARY. The article provides information on the content of individualization of individual training of students in the credit-modular system. The credit-modular system is a system that is aimed at increasing the individual focus of students in this system, organizing training in accordance with the individual educational capabilities of the student, and also discusses the stages of individualization of the limb. This article can be used as theoretical information by representatives of the relevant field.

ОЦЕНКА ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ И АНАЛИЗ ИХ ЭФФЕКТИВНОСТИ

А.К.Базарбаева – преподаватель

Нукусский инновационный институт

Таянч сўзлар: баҳолаш жараёнининг роли, баҳолаш мезонлари, баҳолаш тузилмалари, баҳолаш жараёни, баҳолаш жараёнининг мақсади, баҳолаш тузилмаларининг афзалликлари ва камчиликлари.

Ключевые слова: роль процесса оценивания, критерии оценивания, структуры оценивания, процесс оценивания, цель процесса оценивания, недостатки и преимущества при использовании структур оценивания.

Key words: the role of the evaluation process, evaluation criteria, evaluation structures, evaluation process, the goal of the evaluation process, advantages and disadvantages of evaluation structures.

Оценивание играет важную роль в процессе преподавания и обучения на всех уровнях образования. Нет никаких сомнений в том, что любая система оценки будет определять, чему учатся студенты и каким образом они это делают. Следовательно, оценивание определяет то, как мы преподаем, какие методики преподавания мы используем и какие инновации мы внедрили в методики преподавания. Но оценивание – это не только оценки и экзамены. Речь также идет о том, чтобы лучше узнать студентов и качество их обучения, а также использовать эти знания на их благо. Оценивание, без сомнения, является одной из основных "движущих сил" процесса преподавания и обучения. Поэтому важно, чтобы преподавательский состав был знаком не только с техническими аспектами множества различных форм оценивания, используемых в настоящее время, но и с их преимуществами и недостатками [1].

Оценивание непрерывный процесс установления высоких ожиданий в отношении обучения студентов, измерения прогресса в достижении установленных результатов обучения и обеспечения основы для размышлений, обсуждений и обратной связи для улучшения академических программ университета. Это систематический и циклический процесс, который делает ожидания и стандарты явными и общедоступными. Оценивание неизбежно формирует то, как учащиеся подходят к обучению, включая то, на чем они сосредотачиваются и как они это изучают.

Оценивание — это то, что делается каждый день, оценивая, где находится студент в процессе обучения. Оценивание студентов в основном происходит, когда преподаватель задает им вопросы, читает их домашние задания и слушает их доклады. Эти оценки определяют учебные решения относительно темпа, стратегий обучения